

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT QARZI

Olimova Guli Bobomurod qizi

Toshkent kimyo texnologiya instituti

Yangiyer filiali 2-bosqich talabasi


ANNOTATSIYA: Bu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Davlat qarzi va uning samarali boshqarish choralari, Davlat qarzining prognoz ko‘rsatkichlari, Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar haqida umumiy ma’lumot berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Xizmat ko‘rsatish salohiyati, diversifikatsiya qilish, suveren xalqaro obligatsiyalar, ichki moliya bozorlari, fond birja.


KIRISH: Davlat qarzi - davlatning aholi, firma, tashkilot, banklar, xorijiy moliya-kredit muassasalari oldidagi qarz majburiyatlari. Davlat o‘z daromadlari bilan harajatlarini qoplay olmay qolganda byudjet taqchilligi paydo bo‘ladi va u qarz ko‘tarish yo‘li bilan qoplanadi. Davlat qarzni turli qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar, zayomlar chiqarib sotish, moliya muassasasi (bank)dan ssuda olish va boshqa usullar bilan oladi. Investiitsiya davlat qarzi deb hisoblanmaydi. Davlat qarzining to‘lov davriga ko‘ra qisqa muddatli va uzoq muddatli, tarkibiga ko‘ra ichki qarz (davlat mamlakatning o‘zidagi iqtisodiy sub’yektlardan qarzдор bo‘ladi) va tashqi qarz (xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va b.dan qarzдорlik) kabi turlari bor. Davlat qarzi 2024-yil 1-iyul holatiga 37 mlrd AQSH dollarini yoki YIMga nisbatan 33,2 foizni tashkil qildi. Shundan: davlat tashqi qarzi – 30,9 mlrd AQSH doll. yoki YIMga nisbatan 27,7 foiz; davlat ichki qarzi – 6,1 mlrd AQSH doll. yoki YIMga nisbatan 5,5 foiz.

XVJ tomonidan 2024-yil iyul oyida e‘lon qilingan davlat qarzi barqarorligi hisobotida O‘zbekiston Respublikasining davlat qarzi xizmat ko‘rsatish salohiyati yuqori darajada, davlat qarzi va mamlakatning umumiy tashqi qarzi bilan bog‘liq xatarlar past darajada baholangan.

O‘zbekiston Respublikasining davlat qarzi dinamikasi



O‘zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi iqtisodiyot tarmoqlari kesimida, 2024-yil 1-iyul holatiga, mlrd AQSH doll.



Davlat qarzini samarali boshqarish choralari

So‘nggi yillarda davlat qarzini mo‘tadil darajada saqlash va samarali boshqarish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan:

– O‘zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonunida Davlat qarzining eng yuqori miqdori YIMning yillik prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilandi. Bunda, Davlat qarzining miqdori YIMga nisbatan 50 foizga yetgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat qarziga belgilangan me‘yorlardan oshmasligini ta’minlovchi chora-tadbirlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga kiritadi;

– 2020-yildan boshlab yangi jalb qilinadigan davlat qarzi miqdorlarini qonuniy chegaralash amaliyoti yoʻlga qoʻyildi;

– Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta xatarlarini boshqarish maqsadida milliy valyutada qarz jalb qilish hamda ichki moliya bozorlarini rivojlantirish choralari koʻrilmoqda.

Xususan, yillik davlat gʻaznachiligi obligatsiyalarini joylashtirish hajmi 2018-yildagi 597 mlrd soʻmdan 2023-yilda 25 trln soʻmga yetkazildi, obligatsiyalarning muomala davri **10 yilgacha** uzaytirildi. Shuningdek, 2020–2024-yillarda 11,8 trln soʻmlik milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi.

– Davlat korxonalari va banklari oʻz loyihalarini moliyalashtirish uchun, transformatsiya jarayonlariga muvofiq, jahon moliya bozorlarida davlat kafolatisiz mablagʻ jalb qilishga oʻtkazilmoqda;

Davlat korxonalari hamda banklari tomonidan xalqaro meʼyorlar va talablar asosida oʻz moliyaviy hisobotlarining shaffofligini taʼminlash, “Fitch”, “S&P” va “Moody’s” xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻygan holda xalqaro kredit reytingi olinishi natijasida 2019–2024-yillarda “Oʻzsanoatqurilishbank” ATB, “Oʻzmilliybank” AJ, “Ipoteka-bank” ATIB, “UzAvto Motors” AJ va “Oʻzbekneftgaz” AJ tomonidan umumiy hajmi qariyb 3,2 mlrd AQSH dollarlik mablagʻlar xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali jalb qilindi.

– XVJ tavsiyalariga asosan har chorakda davlat qarziga oid statistik maʼlumotlar¹¹ Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sahifasida doimiy ravishda eʼlon qilinib kelinmoqda.

Davlat qarzining prognoz koʻrsatkichlari

Oʻrta muddatli istiqbol uchun makroiqtisodiy prognozlar, tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va strategiyalarida belgilangan maqsadli koʻrsatkichlarga asoslangan koʻp ssenariyli tahlillarga koʻra, 2024-yil yakunida davlat qarzi YIMga nisbatan 35,5 foiz, 2025–2027-yillarda 36,7-37 foiz oraligʻida shakllanishi prognoz qilinmoqda.

Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar.

Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab olindi:

– Davlat qarzini to'lashning o'rtacha muddatini uzaytirish (masalan, o'rta va uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlari chiqarishni ko'paytirish), shuningdek, davlat qarzini manbalar bo'yicha diversifikatsiya qilish;

– Davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni keng jalb qilish jarayonini jadallashtirish;

– Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xatarlarning oldini olish, ularni bartaraf etish yoki kamaytirish yuzasidan qat'iy choralar ko'rish;

– Davlat qarziga oid ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash.

Xulosa: O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi hozirgi kunda mo'tadil va nazorat ostidagi darajada saqlanmoqda. 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, davlat qarzi YaIMga nisbatan 33,2 foizni tashkil etib, xalqaro standartlar doirasida xavfsiz darajada baholanmoqda. Davlat qarzining asosiy qismini tashqi qarz (27,7%) tashkil qilgan bo'lsa-da, ichki qarz miqdorida ham sezilarli o'sish kuzatilmoqda. O'zbekiston hukumati tomonidan davlat qarzini samarali boshqarish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Davlat qarzi to'g'risida"gi qonun asosida qarzga nisbatan qat'iy cheklovlar belgilangan bo'lib, qarz miqdorining YaIMga nisbati 60 foizdan oshmasligi qonuniy asosda kafolatlangan. Shuningdek, qarz portfelini diversifikatsiya qilish, milliy valyutada moliyalashtirishni kengaytirish, xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikda shaffof moliyaviy hisobotlar yuritish orqali ishonchli kredit muhitini shakllantirishga erishilmoqda.

O'rta muddatli istiqbolda davlat qarzi YaIMga nisbatan 35–37 foiz oralig'ida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bu esa qarz yuki iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini, aksincha, barqaror moliyaviy siyosat orqali samarali investitsion muhit shakllanishini anglatadi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-sahifasi – <https://www.mf.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistikasi malumotlari- <https://www.cbu.uz>
4. Byudjetnoma 2025-yil uchun.pdf